



OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABA YOSHLAR ORASIDA SOG'LOM TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARINING QIYOSIY TAHLILI¹

Ataxanova Sayera Otkurovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası
dotsent v.b., psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

ANNOTATSIYA

Jahon ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida talabalarning sog'lom tafakkurini rivojlantirish, intellektual imkoniyatlarini adekvat baholay olishga xizmat qiluvchi psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy salohiyati yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarida doimo ilg'or bo'ladi. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim sohasidagi huquqiy me'yoriy hujjatlarda talabalarni kreativ, tanqidiy fikrlaydigan qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ilm-fan va texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sharoitida uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida samaradorlikni ta'minlashda ta'lim oluvchilarning tafakkur, qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Maqolada talabalarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning samarali shakl va metodlari masalasi, sog'lom tafakkurni shakllantirish jarayonining ijtimoiy fanlar bloki tarkibidagi va auditoridan tashqaridagi ta'lim jarayoni, auditoriya ichida va uning tashqarisida qanday tashkil qilish zarurligi hamda qanday metodlardan foydalanish darkorligi masalasi ko'rib chiqilgan.

KALIT SO'ZLAR

Sog'lom tafakkur, ta'lim jarayoni, ijtimoiy fanlar, auditoriya, metod, shakl, vosita.

Received: September 12, 2024

Accepted: October 6, 2024

Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Ataxanova S. O. Oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni rivojlantirishning shakl va metodlari // Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФОРМ И МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ЗДОРОВОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Атаханова Сайера Откуровна

Узбекский государственный университет
мировых языков
кафедра педагогики и психологии
и.о. доцента, доктор философии (PhD)
по психологическим наукам

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В мировых образовательных учреждениях и научно-исследовательских центрах проводятся научные исследования по осуществлению психопрофилактической и психокоррекционной работы, направленной на развитие здорового мышления студентов и адекватную оценку их интеллектуальных возможностей. В этой связи следует отметить, что страна с высоким научным потенциалом всегда будет передовой во всех областях. В настоящее время в нормативно-правовых документах в сфере современного образования особое значение приобретает воспитание студентов креативными, критически мыслящими, способными находить конкретные решения проблем, возникающих в образовательном процессе. Более того, в условиях стремительного развития науки и технологий особое внимание уделяется уровню развития мышления, креативности, логичности, содержательности и творческих способностей обучающихся с целью обеспечения эффективности, результативности и качества на всех этапах непрерывного образования. Статья посвящена эффективным формам и методам развития здорового мышления студентов, организации педагогического процесса в аудитории и вне аудитории с использованием соответствующих педагогических методов, способов и форм.	Здоровое мышление, процесс обучения, социальные науки, аудитория, метод, форма, средство. Received: September 12, 2024 Accepted: October 6, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

COMPARATIVE ANALYSIS OF FORMS AND METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THOUGHT AMONG STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

Atakhanova Sayera Otkurovna

*Uzbekistan State World Languages University
Department of “Pedagogy and Psychology”
Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)
in Psychological Sciences*

ABSTRACT	KEYWORDS
Scientific research is being conducted in educational institutions and research centers worldwide on implementing psycho-preventive and psycho-corrective measures aimed at developing students' healthy thinking and adequately assessing their intellectual capabilities. In this regard, it can be noted that a country with a highly developed scientific potential will always be at the forefront in all fields. Currently, in legal and regulatory documents pertaining to modern education, it is crucial to nurture students who can think creatively and critically, and find precise solutions to problems arising in the educational process. Moreover, in the context of rapid scientific and technological advancements, special attention is being paid to the development levels of students' thinking, creativity, logic, content comprehension, and creative abilities to ensure efficiency, effectiveness, and quality at all stages of continuous education. The article is devoted to the effective forms and methods on the process of formation of students' healthy thinking, forming a teaching process in the social sciences block classes and outside of the classroom.	Healthy thinking, teaching process, social sciences, audience, methods, forms, tools. Received: September 12, 2024 Accepted: October 6, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Jahonda ta'lim jarayonida yagona maqsad - sog'lom tafakkurni rivojlantirish usullarini takomillashtirish bo'lib, uning asosiy komponentlari sifatida kognitiv, konativ, ijodiylik, innovatsion, intellektual salohiyatga alohida e'tibor qaratilmoqda. Globallashuv davrida «...yuqori aqliy qobiliyatli yoshlarni aniqlash, ularni tizimli dastur yordamida qo'llab-quvvatlash»²ga ustuvorlik berish orqali ularni har tomonlama barkamol jihatdan shaxs bo'lib shakllantirish, o'zi egallagan kasbi va bilimi bilan faxrlanishni tarkib toptirish masalalari dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Avstraliyaning Melburn Universiteti tomonidan o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarda shaxs tafakkuri, kreativligi, intellektining jamiyat bilan aloqadorligi masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda³. Bu borada yoshlarning indikator ko'rsatkichi sifatida kasbiy muvaffaqiyati va salohiyatini tafakkur mezonlari orqali belgilanishi, shaxsning yaratuvchanligi, iqtidori, iste'dodi, talanti jamiyatning strategik zaxirasi sifatida e'tirof etilishi bilan bog'liq muammolarni o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarning pozitiv, ratsional, kreativ, mantiqiy, ma'naviy tafakkurlarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari⁴ yaratildi: «...jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vataniga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishida ...yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish...»⁵ vazifalari belgilanganligi yosh avlodga intellektual tafakkurini shakllantirish orqali ularning o'quv faoliyatidagi yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lmoqda.

METODOLOGIYA

² National Association for Gifted Children «Pre-K to Grade 12 Gifted Education Programming Standards». 2019. <http://www.nagc.org/resources-publications/resources/national-standards-gifted-and-talented-education>

³ <https://theacademicadvisor.com.ua/melnburskiy-universitet-avstraliya>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4306-son Qarori.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi PF–60-sonli Farmoni.

Ijtimoiy fanlar bloki tarkibidagi pedagogik faoliyat bevosita ta'lim tizimida ishlayotgan pedagog (ko'pchilik xollarda ular ijtimoiy fanlar bo'yicha pedagoglar bo'ladi) va talabaning o'zaro pedagogik muloqoti asosiga quriladi. Binobarin, ijtimoiy fanlar bloki ta'lim faoliyatiga sog'lom tafakkurni shakllantirish bo'yicha ijtimoiy fanlarni o'qiyotgan pedagoglar jalb etilishi lozim. Ijtimoiy fan o'qituvchisidan o'z fani asoslarini bilish bilan bir qatorda maqsadli ravishda sog'lom tafakkur bo'yicha zarur bilim va malakalar taqozo etiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yordamida sog'lom tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat, bir tomondan, ta'lim muassasasi mutasaddilari tomonidan maqsadli tashkil qilinishi, ikkinchi tomondan esa, ta'lim muassasasidan tashqarida, masalan, oila, mahalla, turli NNT lar, OAV larida ko'magida ham tashkil qilinishi va olib borilishi mumkin.

Talabalarda sog'lom tafakkurni shakllantirish pedagogik jarayonida o'zaro muvofiqlashtirilgan, bir maqsadga yo'naltirilgan, biri birini mazmun, shakl va vositalar rang-barangligi asosida to'ldirib borgan jarayon tashkil qilinsagina samaradorlik ta'minlangan bo'ladi.

Sog'lom tafakkurni shakllantirishda oliy ta'lim tizimida quyidagi pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyati keng bo'lib, yaxshi samara berishi tadqiqotda ayon bo'ldi:

- an'anaviy ta'lim (maxsus ma'ruzalarni tashkil qilish, ijtimoiy blok fanlari tarkibida maxsus darslarni kiritish);
- hamkorlikdagi ta'lim (pedagog va talabaning hamkorlikdagi ilmiy, nazariy va amaliy faoliyatini tashkil qilish, salomatlik talablari doirasida shaxsiy ibrat vaziyatini yuzaga keltiradi, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun qo'llaniladi);
- rivojlantiruvchi ta'lim (sog'lomlik qadriyatlarini ham aqliy, ham hissiy qabul qilishni rivojlantirish uchun qo'llaniladi);
- muammoli ta'lim (talabalarni turli muammoli vaziyatlarning yechimini topish uchun, masalan: "Nima uchun OITS inson hayotiga zarar ko'rsatadi?", yoki "Men turnikda necha marta tortilaman?" kabi aqliy yoki jismoniy faoliyat turlari

rag'batlantiriladi, talaba muammoni muhokama etish jarayonida ma'lum xulosalarga keladi va ko'nikmalar hosil bo'ladi);

- evristik ta'lim (sog'lom tafakkur bo'yicha bilim va malakalarni topish va anglash jarayoni tashkil qilinadi va mazkur jarayonda talabaning o'zi ma'lum natijalarni qo'lga mustaqil kiritadi, masalan, qariyalar hayotini tahlil qilish orqali insonning qarigandagi empirik, ya'ni qariyalar his-tuyg'ularini anglash xususiyatlari o'rganiladi);

- faol ta'lim (salomatlik tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan aqliy, jismoniy, ma'naviy-mafkuraviy faollik sharoiti yaratiladi, talaba faollik, ijodiylik ko'rsatish orqali ma'lum qadriyatlarni o'ziga singdiradi. Insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlari cheksiz bo'lib, pedagogikaning vazifasi mana shu imkoniyatlarni, bizning holatimizda sog'lom tafakkurni shakllantirishda ro'yobga chiqarish, amaliy qilish va ularni faollashtirishdan iborat);

- kontekst ta'lim (salomatlikni asrash va muhofaza qilish uchun malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida ma'lum kasalliklar, bemorxonada yotgan bemorlar, masalan, narkomanlar bilan ochiq muloqot sharoiti o'tkaziladi, bunda talaba salomatlikka putur yetgan omillar bilan kontekst holatiga, ya'ni muloqot holatiga kiritiladi, talaba bevosita o'z salomatligini asrash bo'yicha ma'lum xulosalariga keladi);

- o'rgatish asosidagi ta'lim (bunda talabalarga ma'lum vazifalarni berish orqali ularning o'z do'stlari va kursdoshlariga dars o'tishi sharoiti tashkil qilinadi, ya'ni talabaning o'zi mutasaddi, o'qituvchi va pedagogga aylantiriladi. Tabiiyki, talabaning mas'uliyati oshadi, u darsni mustaqil ravishda tayyorlaydi, uning usullarini belgilaydi, uning darsni qanday o'tishi boshqa talabalarni ham jonlantiradi, ular pedagog sifatida chiqayotgan talabaga yordam berishi kuchayadi, auditoriyada talabalar kuchi bilan qiziqarli va jonli pedagogik muhit yaratiladi);

- interfaol ta'lim (interfaol o'qitish – o'quvchilarning bilim olish hamda malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish faoliyatini ham pedagogik, ham didaktik, ham tashkiliy-boshqaruv jihatdan keng ravishda, kompleks, pedagogik jarayonda ishtirok etuvchi barcha tomonlar, pedagog, o'quvchilar, o'quvchilararo tashkil etishdir.


Sog'lom tafakkurni shakllantirishda interfaol usullardan klaster, bumerang, aqliy hujum, zinama-zina, SVOT analiz, tafakkur xaritasi, tushunchalar tahlili, akvarium, open space, shaxsiy analogiya v.b. usullarni keng qo'llash mumkin);

Bizning o'rganishimizga ko'ra, oliy ta'lim muassasasida talaba-yoshlarda sog'lom tafakkur g'oyalarini shakllantirishda quyidagi pedagogik shakllar samarali hisoblanadi:

Ijtimoiy fanlar blokida: ma'ruzalar, ma'ruza-suhbatlar, savol-javoblar, diskussiyalar, amaliy seminarlar, maxsus treninglar, mashqlar, slayd-shoular, filmlar, mustaqil ishlar v.b.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tarkibida: turli va rang-barang maqsadli tadbirlar, uchrashuvlar, seminarlar, musobaqalar, ko'rik tanlovlar, OAVni ko'rsatuvlarini muhokama qilish, ziyorat, urf-odatlar v.b.

Sog'lom tafakkurning shakllanganlik darajasi insonni turli hayotiy vaziyatlarda, xususan o'z salomatligiga tahdid soluvchi o'rinlar va vaziyatlarda o'zini ko'rsatishga, o'z hayotiy pozitsiyasini egallashga undaydi. Sog'lom tafakkur bilan uzviy aloqador tarzda insonning sog'lom tafakkuri uning axloqi va xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi.



Demak, sogʻlom tafakkurning shakllanganlik darajasi insondagi salomatlik qadriyatlariga nisbatan hayotiy pozitsiyaning shakllanganlik darajasiga teng keladi (1- rasm).

1-rasm. Sogʻlom tafakkurning hayotiy pozitsiyaga taʼsiri

Tadqiqot jarayonida quyidagi pedagogik shakllar oʻz samarasini koʻrsatdi: sogʻlom turmush gʻoyalari va anʼanalari, sogʻlom tafakkur va madaniyat anʼanalari, jamiyatdagi koʻzga koʻringan insonlar ibрати va nasihati, OAV taʼsiri va tarbiyaviy roli, kitob mutolaa qilish, sogʻlomlikka zarar yetkazuvchi turli tibbiy, jismoniy va mafkuraviy-gʻoyaviy muammolarni ochiq muhokama qilish, birgalikda maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarda ishtirok etish, sport tadbirlari, koʻrik tanlovlari, musobaqalari va dargohlarini ziyorat qilish, sogʻlom tafakkurni shakllantirish jarayonida islom omilidan toʻgʻri foydalanish, islom ziyoratgohlariga safar qilish, taʼlim muassasasidan tashqaridagi turli sport, jismoniy tarbiya va tibbiy tadbirlarni tashkillashtirish va uyushtirish, salomatlik urf-odatlariga amal qilish, sport va jismoniy tarbiya va rivojlanish boʻyicha turli, maxsus ravishda talaba-yoshlar uchun moʻljallangan tadbirlar va anʼanalarni ishlab chiqish, NNT lari faoliyati va mahalla tadbirlarida ishtirok etish kabilardan unumli foydalanish asosiga qurilishi amaliy natijalar va taʼlim jarayonining samaradorligini taʼminlab beradi.

Tadqiqot jarayonida talabalarda sogʻlom tafakkurni samarali shakllantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan shakl, tajriba-sinov jarayoniga keng tatbiq etildi. Ulardan baʼzilarini koʻrib chiqamiz:

Ijtimoiy fanlar blokidagi pedagogik faoliyat shakllari:

1. “Qarama-qarshiliklarni topish”

Salomatlikka yoʻnaltirilgan bilim, malaka va koʻnikmalar ichida qarama-qarshi, yaʼni antonim fikrlar va tushunchalar juda koʻp boʻladi. Talabaga mana shunday qarama-qarshi fikrlardan iborat boʻlgan tizim taklif qilinadi. Vazifa: mana shu qarama -qarshiliklarni sogʻlom tafakkur doirasida ijodiy davom ettirishdan iborat qilib belgilanadi. Masalan, och-toʻq, sogʻlom-nosogʻlom, faol inson - sust inson, kasal - bemor.. v.h.

2. “Antipodlar jadvali”

Pedagog talabalardan bir A4 varaq olib, uni ikki teng ruknga bo'lishini taklif etadi. Salomatlikka aloqasi mavjud bo'lgan har qanday bir tushunchaning, masalan, gigiyenik tarbiya, jismoniy tarbiya, sport, kun tartibi kabilarning, ikki tomoni, ya'ni ijobiy tomoni, va salbiy tomonlarini yozib chiqishni so'raydi. Jadval to'ldirilgandan so'ng jadvalni to'ldirish natijalari og'zaki muhokama etiladi. Salomatlikni asrash va muhofaza qilishga nisbatan talabaning munosabati so'raladi, mazkur munosabatning amaliy jihatlari tekshiriladi, ya'ni talaba, masalan, jismoniy tarbiyaning ijobiy tomonlarini biladi, ammo mana shu talablarga ham o'zi rioya etadimi, yo'qmi, tekshiriladi.

3. “Pozitsiyalar korreksiyasi”

Talabadan sog'lom tafakkur, sog'lom madaniyat va sog'lom turmush tarziga oid biror bir tushunchaning aso mazmunini belgilab berish so'raladi. Talaba o'z munosabatini bildirganidan keyin, uning munosabatining istiqbolini belgilab berish so'raladi. Masalan, kun tartibi, «Men hozir kun tartibiga rioya etaman, ammo bir necha yil avval kun tartibiga rioya qilmaganman, bundan keyin har doim kun tartibiga rioya etaman». Yoki, bugun men kasalman, ammo ertaga kasallikni yengib o'tishni istayman, kelgusida mana shunday kasal bo'lmaslik uchun quyidagi amallarni bajarishim lozim». Yoki, «Men bugun sog'man. Bu holatdan men xushnudman. Ammo kelgusida kasallikka chalinmaslik uchun men nimalarga e'tibor bilan qarashim lozim.» shunga e'tibor berish lozimki, mazkur salomatlik korreksiyasi individual amalga oshiriladi, shu bois har bir talabaning javoblari va ta'kidlari uning o'zigagina xos bo'lib, boshqalarning javoblaridan ma'lum o'rinlarda farq qiladi.

4. “O'z minuslaringni plyuslarga aylantir!”

Salomatlik bo'yicha talabaning o'z ijobiy va salbiy amallarini belgilab berishi so'raladi. So'ng mana shu minuslarni plyuslarga aylantirish uchun kerak bo'lgan sharoit, imkoniyat, vaqt va boshqa amallar qanday bo'lishi lozimligini belgilab berish so'raladi. Bu mashq talabaning o'z salomatligiga nisbatan reflektiv munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

5. “Sog'lomlikka qaratilgan hayot yo'li”

Talabadan sog'lomlikka qaratilgan yo'lning xususiyatlari, amallari va

sharoitlarini belgilab berish so‘raladi. Sog‘lomlikka qaratilgan yo‘l

dagi «toshlar, suv toshqinlari, tabiiy ofatlar»ni ham belgilash so‘raladi. So‘ng talaba bilan mazkur yo‘ldan ziyonsiz o‘tish amallari haqida bahs yuritish talab etiladi.

6. “Sog‘lom tafakkur bo‘yicha tushunchalar tahlili”

Talabalarga sog‘lom tafakkur bo‘yicha o‘nga yaqin tushunchalarning ma‘nosini aniqlashtirish so‘raladi. Buning uchun tushunchalar tahlili jadvalidan foydalaniladi. Talabalar sog‘lom tafakkur tushunchalarining ta‘rifini belgilab berishlari lozim bo‘ladi. Ular ta‘riflarni belgilagandan so‘ng, slaydlardagi to‘g‘ri javoblar talabalar hukmiga havola etiladi. Talabalarda o‘zining javoblari bilan to‘g‘ri javoblarni solishtirish imkoni bo‘ladi. Shu asosda talabalardagi mustaqil munosabat, bilimlarni chuqurlashtirish va kuchaytirish mumkin bo‘ladi. Tushunchalar tahlilida avval tushunchalarni emas, balki tushunchalar ta‘riflarini berish orqali ham ularni sog‘lom tafakkur bo‘yicha maxsus bilimlarga tayyorlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

7. “Sog‘lom tafakkur ilmiy-amaliy anjumanlari”

Talabalar faol ishtiroki o‘quv dargohining ham professor-o‘qituvchilar ishtirokida, ham talabalar ishtirokidagi maxsus nazariy-amaliy konferensiyasi o‘tkaziladi. Uning materiallari nashr qilinadi.

8. Sog‘lom tafakkurda islom qadriyatlarining o‘rni

Sog‘lom tafakkur borasidagi islom qadriyatlari tizimidagi oilaviy munosabatlar, besh vaqt namoz va tahorat tartiblari, oilada ayol va erkak o‘rni, ularning majburiyatlari va huquqlari, poligamiya, ajrim, ovqatlanish, ro‘za tutish tartiblari masalalari keng muhokama qilinadi.

Tadqiqot jarayonida talabalar bilan mana shunday ijtimoiy fanlar bloki tarkibidagi ishlardan “Oyoq kiyimi ichidagi tosh”, “Mening asl dur-u gavharim”, “Salomatlik tuman boylik”, “Salomatlikni asrash tartib va intizomlari”, “Salomatlik asoslari”, “Salomatlik qadriyatlari”, “Sog‘lom turmush tarzi”, “Sog‘lom madaniyat va salomatlik madaniyati”, “Men oilaviy hayotga tayyormanmi?!”, “Oilaviy hayot va salomatlik”, “Jinsiy hayot va salomatlik”, “Inson hayotiga bo‘lgan zamonaviy jinsiy tahdidlar”, “Zamonaviy jinsiy tahdidlar va ularning yashirin ko‘rinishlari nimalarga olib keladi”, “O‘z salomatligini asrash – tartibi, strukturasi va an‘analari»,

“Sogʻlomlik pozitsiyasi – mening pozitsiyam”, “Salomatlikni asrash boʻyicha stereotiplarni sindirish” kabi mavzularda oʻnlab tadbirlar, davra suhbatlari, mutaxassislar bilan uchrashuvlar, bahslar, treninglar va seminarlar, anjumanlar oʻtkazildi.

Shunday qilib, oliy taʼlim tizimida talaba-yoshlarda sogʻlom tafakkurni shakllantirish oʻziga xos pedagogik jarayon boʻlib, unda na faqat umumiy taʼlim jarayoni va dars soatlari, predmetlar hajmi va mazmuni, ijtimoiy fanlar bloki tarkibidagi pedagogik faoliyat, shu bilan birga auditoriyadan tashqarida sogʻlom tafakkurga nisbatan boʻlgan faol munosabat, eng avvalo talabaning oʻzining oʻz salomatligiga boʻlgan anglangan faoliyati va munosabati, oilaning saʼyi-harakatlari, shu bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy muhit hamda tibbiy-jismoniy infrastrukturaning mavjudligi kabi omillar ham rol oʻynaydi.

Taʼlim tizimidagi tub oʻzgarishlar sogʻlom tafakkurning qonuniy tarzda hayotga joriy etilishi uchun imkoniyatlar yaratadi, uning izchilligi va davomiyligini taʼminlaydi, shaxsning ham maʼnaviy, ham jismoniy taraqqiy etishi uchun zarur shart-sharoitlar tizimini yaratdi.

Shunga koʻra, tajriba–sinov ishlarining miqyosi quyidagicha belgilandi: talaba-yoshlarda sogʻlom tafakkurni shakllantirishni mavsumiy faoliyat deb qaramaslik kerak, yaʼni har doim, har qanday vaqtda, hamma joyda aniq rejalar asosida mavjud pedagogik-psixologik muhitni hisobga olgan holda axloqiy tarbiya yoʻnalishini samarali amalga oshirish lozim va mazkur talab maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning bosh yoʻnalishlaridan biriga aylanishi darkor. Tajriba–sinov ishlarini olib borish va uyushtirish uchun tadqiqot davomida:

- maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning mazmun – mohiyati yanada chuqurroq anglanishi taqozo etiladi;
- maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning oʻziga xos pedagogik va psixologik jihatlari aniqlash darkor;
- tajriba-sinov ishlari doirasida sogʻlom tafakkurning shakllantirilganlik darajalari belgilash lozim boʻladi;

- hamda mana shu belgilangan daraja asosida tajriba ishlaridan oldin va tajriba ishlaridan so'ng talabalarning bilim hamda malakalari darajalari aniqlash talab etiladi;
- Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirish jarayonida talaba-yoshlarning sog'lom tafakkurini shakllantirish bo'yicha ularning sog'lom tafakkur darajasini ilmiy, intellektual, axloqiy va hissiy-emotsional jihatdan shakllanganlik darajasini belgilovchi me'yorlar ishlab chiqish darkor bo'ladi;
- Tadqiqotda sog'lom tafakkur bo'yicha milliy va tarixiy, ilmiy va nazariy qarashlar, Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlari umumlashtirilishi darkor bo'ladi. Ularning tarixiy-milliy ildizlari va kelib chiqish omillari belgilanadi.
- Yoshlar sog'lom tafakkurining bugungi kun, ya'ni globalizatsiya, modernizatsiya va demokratlashtirish jarayonlari uchun pedagogik mazmuni, amal qilish shart-sharoitlari, pedagogik tamoyillari, yangi innovatsion usul, shakl, vositalari va yo'llari, dolzarb tamoyillari aniqlanadi.
- Sog'lom tafakkur borasidagi milliy va umumbashariy bilimlar majmuasi tadqiqotda boyitiladi, talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirishning yaxlit pedagogik asoslari aniqlanishi taqozo etiladi.

Tajriba-sinov ishlari:

- I. auditoriyadagi ijtimoiy blok fanlari mazmunini innovatsion va zamon talablariga mos sog'lom tafakkur g'oyalari bilan takomillashtirish va
- II. ta'lim muassasasi tarkibida va auditoriyadan tashqaridagi madaniy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali amalga oshiriladi.

Sog'lom tafakkur tushunchasining ilmiy definititsiyasining ishlanganligi, uning O'zbekistonga xos tadrijiy hamda ijtimoiy xususiyatlarining o'ziga xos qirralari belgilanganligi, mazkur tushuncha mazmunining pedagogik nuqtayi nazardan ilmiy asoslanishi, sog'lom tafakkurni shakllantirishda o'ziga xos yaxlit pedagogik andozaning yaratilganligi, uning ilg'or pedagogik shakl va metodlarning aniqlanganligi tadqiqotning nazariy asoslarini tashkil qiladi.

Sog'lom tafakkurni oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarida shakllantirish jarayonida pedagogik faoliyatni tashkil qilishda pedagogik mahorat, pedagogik

kadrlar sifati, pedagogik vosita va uslublarning to'g'ri tanlanishi kabi omillar pedagogik samaradorlikni ta'minlashning muhim elementlaridan hisoblanishi tasdiqlanadi.

Pedagogik tajriba–sinov ishlarining asosiy maqsadi – oliy ta'lim tizimi talaba-yoshlarida sog'lom tafakkurni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash, uning yaxlit pedagogik tizimi hamda yoshlarning sog'lom tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tajriba–sinov maydonida amalga oshiriladigan vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilanadi:

- a.** belgilangan ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan tajriba–sinov ishlari rejasini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirish;
- b.** tajriba–sinov ishlarini o'tkazish uchun pedagogika fanining yetakchi mutaxassislaridan mas'ullarini belgilash va ularga zarur pedagogik shart – sharoitlarni yaratish;
- c.** tajriba–sinov ishlari yuzasidan olingan ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etilganligi haqidagi tasdiqlangan dalolatnomalarni tayyorlash.
- d.** belgilangan tajriba–sinov maydonlarida amalga oshirilgan natijalar yuzasidan umumlashtirilgan, boshqa ta'lim muassasalarida ommalashtirishga erishilgan dalolatnomalarni tayyorlash va me'yoriy hujjat sifatida tadqiqot xulosalarida ularni inobatga olish.

Tajriba–sinov ishlarini tashkillashtirishga qo'yiladigan ilmiy – metodik talablar:

- a.** tadqiqot maqsadiga mos keluvchi, qo'yilgan muammoning yechimini topish va uni yuzaga chiqaruvchi, dasturda belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishni ta'minlovchi shart – sharoitlarni yaratish;
- b.** tajriba–sinovdan o'tkazilayotgan tashkiliy shakl, ta'lim metodi va vositalarining samaradorlik ko'rsatkichlarini tizimli ravishda aniqlash hamda ularni qayd etib borishga mo'ljallangan rasmiy ish qog'ozlarini yuritishni nazorat qilish;

- c. tadqiqotning ilmiy farazi va olingan natijalarni tasdiqlashi mumkin bo'lgan vazifalarni yaratish, tegishli shart – sharoitlarni o'zgartirish, vaziyatni tadqiqot maqsad – vazifalariga mos takomillashtirgan holda amalga oshirish;
- d. tajriba–sinov ishlari natijalari, pedagogik hodisalarning amalga oshirilish jarayonlarini aniq va o'z vaqtida tavsiflab borish;
- e. maxsus dastur asosidagi har bir sinov mashg'ulotlarida ma'naviy–axloqiy tarbiyaga oid masalalarni o'rganish bilan boshqa ishchi farazlarni shakllantirish;
- f. tajriba–sinov mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda samaradorlik mezonlarini belgilab olish;
- g. tajriba–sinov ishlarini qayd etish va qayta ishlash usullarini belgilash;
- h. tajriba–sinov ishlarini o'tkazish joyi va vaqtini aniqlash;
- i. o'tkazilishi rejalashtirilgan tajriba–sinov ishlari muddatlarini belgilash, ma'naviy–axloqiy tarbiyaga tegishli mezonlarni aniqlash va belgilangan tajriba–sinovda ishtirok etuvchilarni tanlab olish;
- j. tajriba–sinov mashg'ulotlarining ketma – ketligini ishlab chiqish;
- k. tajriba–sinov mashg'ulotlarida faol qo'llaniladigan didaktik materiallarni tadqiq etishda taklif etilayotgan yechimlar asosida ishlab chiqish hamda axborot texnologiyalari vositalarini qo'llash tartibini belgilash.

Tajriba–sinov ishlarida talaba-yoshlarda yuksak ma'naviy–axloqiy fazilatlarni rivojlantirish mezonlari quyidagilardan iborat qilib belgilanadi:

- talabalarda sog'lom tafakkur haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish;
- talabalarda sog'lom tafakkurni shakllantirishda salbiy ta'sirlar yo'nalishlari haqida tasavvurga ega bo'lish;
- milliy va umumbashariy g'oyalarga asoslangan salomatlik haqida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish;
- Sharq mutafakkirlari va donishmandlarining sog'lom tafakkur, salomatlik va salomatlik tarbiyasiga oid ta'limotlari bilan tanish bo'lish;
- vatanparvarlik, insonparvarlik, ma'naviy yetuklik jihatlari va fazilatlarini tushunish;

- milliy immuniteti kuchli va milliy mentaliteti mustahkam, iymon e'tiqodli, ma'naviy jihatdan kamol topgan shaxs haqidagi bilimga ega bo'lish.

Pedagogik tajriba–sinov maydonida qatnashadigan pedagogika fanlari o'qituvchilari – mas'ul xodimlarning vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilanadi:

- tajriba–sinov ishlarining talab darajasida olib borilishini nazorat qilish, yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va bu haqdagi ma'lumotlarni inobatga olish.
- talabalar bilimini reyting tizimi bo'yicha nazorat qilishda belgilangan muddatlarda oraliq nazorat va yakuniy nazoratni o'tkazishda ishtirok etish. Zarur bo'lgan hollarda qo'shimcha oraliq nazoratni tashkil etish va o'tkazish.
- belgilangan muddatlarda ekspert xulosasini tayyorlash va ularda quyidagilar aks etishi zarurligi:
- tajriba–sinov maydonini o'quv qurollari va vositalari bilan jihozlanganlik darajasi;
- tajriba–sinov ishlarini olib boruvchi o'qituvchining metodik jihatdan (metodik tavsiyalar, darslarni rejalashtirish, test topshiriqlari va boshqalar bilan) ta'minlanganlik darajasi;
- talabalarning darslik, o'quv qo'llanmalar, didaktik materiallar va qurollar hamda boshqalar bilan ta'minlanganlik darajasi;
- tajriba–sinov maydoni ilmiy rahbarining faoliyati;
- tajriba–sinov ishlariga dissertant tomonidan berilayotgan ilmiy va metodik yordam.

Tadqiqotning pedagogik tajriba–sinov ishlarida kutiladigan natijalarni baholash mezonlari quyidagilardan iborat qilib belgilanishi:

- 1) o'zlashtirilgan bilimlar hajmi. Bu ko'rsatkich talaba ifodalay oladigan bilim elementlari miqdori bilan tavsiflanadi va ushbu mezonni baholash ko'rsatkichi sifatida talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilim elementlarining o'quv materiallari (darslik, o'quv qo'llanma va majmualar)da mavjud bo'lgan bilim elementlari sifati qabul qilinadi;
- 2) o'zlashtirgan bilimlarning tizimligi. Bu ko'rsatkich talabalar tomonidan bilimlar o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni tushunish hamda shu asosda

umumlashtiruvchi o'quv topshiriqlarini bajara olish bilan belgilanadi. Bu mezon baholash ko'rsatkichi sifatida talabalar tomonidan bilimlar doirasidagi aniqlangan bog'liqlik va munosabatlar miqdorining o'quv materiali (darsliklari) da mavjud bo'lgan bog'liqlik va munosabatlar miqdori olinadi;

- 3) o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llay olishligi. Bu ko'rsatkich o'zlashtirilgan bilimlarning nostandart vazifalar □ (o'quv topshiriqlari) ni hal qilishda qo'llash darajasi bilan belgilanadi. Bu mezon talabaning bergan nostandart javoblar sonining nazorat topshirig'ida talab qilingan;
- 4) nazorat topshiriqlarini bajarish tezligi. Mazkur ko'rsatkich talabaning belgilangan vaqt mobaynida bajarilgan o'quv topshiriqlari miqdoriga asoslanadi. Uni aniqlash uchun asos sifatida sarflangan vaqtning to'g'ri bajarilgan o'quv topshiriqlar soniga nisbati olinadi;
- 5) bilimlarning mustahkamligi. Mazkur ko'rsatkich talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni tajriba–sinov ishlarining yakuniga ko'ra uzoq vaqt xotirada saqlay olish darajasi bilan bog'liq ko'rsatkich hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimi talaba-yoshlarida sog'lom tafakkurni shakllantirish bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini boshqarish, tashkillashtirish va o'tkazishda juda ko'p omillar va shart-sharoitlarga alohida e'tibor berilishi taqozo etiladi.

Umumiy qilib tahlil qilinganda, pedagogik shakllardan kuyidagilar o'z samarali ekanligini ko'rsatadi: umumbashariy sog'lom turmush g'oyalari va an'analari; milliy sog'lom tafakkur va madaniyat an'analari; jamiyatdagi ko'zga ko'ringan insonlar ibрати va nasihati; OAV ta'siri va tarbiyaviy roli; kitob mutolaa qilish; sog'lomlikka zarar yetkazuvchi turli tibbiy, jismoniy va mafkuraviy-g'oyaviy muammolarni ochiq muhokama qilish; birgalikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish; sport tadbirlari; ko'rik tanlovlari, musobaqalari va dargohlarini ziyorat qilish; sog'lom tafakkurni shakllantirish jarayonida islom omilidan to'g'ri foydalanish; islom ziyoratgohlariga safar qilish; ta'lim muassasasidan tashqaridagi turli sport, jismoniy tarbiya va tibbiy tadbirlarni tashkillashtirish va uyushtirish; salomatlik urf-odatlariga amal qilish; sport va jismoniy tarbiya va rivojlanish

bo'yicha turli, maxsus ravishda talaba-yoshlar uchun mo'ljallangan tadbirlar va an'analarni ishlab chiqish kabilar. NNT lari faoliyati va mahalla tadbirlarida ishtirok etish kabilardan unumli foydalanish asosiga qurilishi amaliy natijalar va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlab beradi.

Shunday qilib, oliy ta'lim tizimidagi talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni shakllantirish jarayonida asosiy ta'lim jarayoniga muvofiq va qo'shimcha tarzda amal qiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tarkibidagi pedagogik faoliyatning ham o'rni va ahamiyati juda katta hisoblanadi. Chunki mazkur ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tarkibidagi pedagogik faoliyatning o'ziga xos vazifalari va maqsadlari mavjuddir. Ular ichida kuyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- Talaba-yoshlarning darsda olgan bilimlari tartiblanadi, tizimlanadi, eng muhimi amaliy jarayondan o'tkaziladi;
- Talaba-yoshlarning o'z salomatligi va boshqalar salomatligiga bo'lgan munosabati sinab ko'riladi;
- Talaba-yoshlarning olgan bilimlari amaliy tatbiqlar va turli tajribalar asosida malaka va ko'nikmalarga aylantiriladi;
- Talaba-yoshlarning salomatlik borasidagi g'oyalari va qarashlarining hayotiy mezonga aylanishi uchun pedagogik muhit yaratiladi.

Oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish zamonaviy jamiyatning muhim talabidir. Bugungi kunda axborot oqimining tezlashuvi, axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi va globalizatsiya jarayonlari yosh avlodda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va o'z hayotini mas'uliyatli boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan talabni oshiradi.

Bugungi kunda globalizatsiya, texnologiya taraqqiyoti va axborot oqimining tezlashuvi yosh avlodda sog'lom tafakkurni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Sog'lom tafakkur talabalarga o'z hayotlarini mas'uliyatli boshqarish, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va jamiyatga foyda keltirish qobiliyatini beradi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti kabi nufuzli oliy ta'lim muassasasida talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish, ularning ko'p tilli

muhitda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va ma'lumotlarni samarali qayta ishlash qobiliyatini shakllantirish juda muhim.

O'zDJTUda talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish ularning kelajakdagi professional faoliyatida, jamiyatda faol ishtirok etishida, ma'naviy va aqliy kamolotga erishishida katta ahamiyatga ega. Sog'lom tafakkur talabalarga: Har qanday ma'lumotni tanqidiy baholash va undan foydalanishni o'rganadi; Muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni qo'llashga imkon beradi; O'z fikrini aniq va tushunarli shaklda ifodalashga, muloqot qilishda samarali bo'lishga yordam beradi; O'zgalar fikrlarini hurmat qilish, tolerantlik va hamkorlik ruhida ishlashga o'rgatadi; Jahon miqyosidagi muammolarni tushunish va ularga yechim topishda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

O'zDJTUda sog'lom tafakkurni rivojlantirishning shakl va metodlari

1. Ta'lim jarayoni:

Ko'p tilli muhit: O'zDJTuning ko'p tilli muhiti tolerantlik, turli madaniyat va fikrlarni hurmat qilishni rivojlantirishga imkon beradi.

Muammoli vaziyatlarni bayon qilingan darslar: Talabalarni muayyan muammoning turli tomonlarini tahlil qilishga, o'z fikrlarini ifodalashga va hamkorlikda yechim topishga undadi.

Mustaqil ishlash va loyiha ishlari: Talabalar mustaqil ishlar, loyihalar ishlab chiqish va himoya qilish orqali mustaqil fikrlash, tanqidiy baholash va taqdim qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Ta'limdan tashqari faoliyat:

Ilmiy konferensiyalar va seminarlar: Talabalar ilmiy maqolalar yozish, ma'ruzalar qilish, muhokamalarda ishtirok etish orqali o'z fikrlashini rivojlantiradi.

Debat klublari: Talabalar debatlarida ishtirok etish orqali mantiqiy fikrlash, hujjatlar bilan ishlash va o'z fikrini himoya qilish qobiliyatini oshirishga o'rganadi.

Ijtimoiy loyihalar: Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini jamiyat foydasiga qo'llashga imkon beradi.

Xalqaro almashuv dasturlari: Xalqaro almashuv dasturlarida ishtirok etish

talabalarga turli madaniyatlar bilan tanishishga, chet tillarini o'rganishga va o'z nuqtayi nazarlarini kengaytirishga imkon beradi.

3. Innovatsion metodlar:

Onlayn ta'lim: Onlayn ta'lim platformalari talabalar uchun turli sayt va ma'lumotlarga kirish imkoniyatini beradi, o'z tempida o'qishga imkon beradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Simulyatsion ta'lim: Simulyatsion ta'lim talabalarga turli vaziyatlarni o'rganishga va o'z fikrlashini sinab ko'rishga imkon beradi.

O'zDJTUda ta'lim jarayoni, ta'limdan tashqari faoliyat va innovatsion metodlarning bir-birini to'ldirishi talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo'shishiga olib keladi. Ko'p tilli muhit, mustaqil fikrlashga oid mashg'ulotlar, ijtimoiy loyihalar va xalqaro almashuv dasturlari talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirishga va ularni globallashuv sharoitida mustaqil hayotga tayyorlashga yordam beradi.

O'zDJTUda ta'lim jarayoni va ta'limdan tashqari faoliyat talaba-yoshlarda sog'lom tafakkurni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratib beradi. Zamonaviy ta'lim usullari va innovatsion metodlarni qo'llash talabalarni globallashuv sharoitida muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. –Москва: 1996, 54-78 с.
2. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., А.Пардаев. Тарбияда инновацион технологиялар. -Т.: - 5-б.
3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., А.Пардаев. Таълимда инновацион технологиялар. -Т.: -122-156- б.
4. Кудрявцев В. Т. Проблемное обучение: истоки, сущность, перспективы. — М.: «Знание», 1991. — 3-15 с.
5. Ларионова О. Контекстное обучение: интеграция гуманистических и прагматических идей. Монография. –Москва: 2012. 232 с.

6. Поднебесная Э. И. Педагогические аспекты формирования социального здоровья подростков: диссертация ... кандидата педагогических наук. - Рязань, 2010.- 73-134 с.
7. Сейтхалилов Э.А. Педагогические основы оздоровительной направленности учебно-воспитательного процесса в общеобразовательных школах Узбекистана. Автореф. дис... доктор.пед.наук. -Т.2000. - 15-27 с.
8. Хуторской А.В. Эвристическое обучение: Теория, методология, практика. - М.: Международная педагогическая академия, 1998. – 150-170 с.

REFERENCES

1. Davydov V.V. Theory of Developmental Learning. -Moscow: 1996, pp. 54-78.
2. Ishmuhamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. Innovative Technologies in Education. -Т.: p. 5.
3. Ishmuhamedov R., Abdukodirov A., Pardayev A. Innovative Technologies in Education. -Т.: pp. 122-156.
4. Kudryavtsev V. T. Problem-Based Learning: Origins, Essence, Perspectives. - М.: "Znanie," 1991. - pp. 3-15.
5. Larionova O. Contextual Learning: Integration of Humanistic and Pragmatic Ideas. Monograph. -Moscow: 2012. 232 p.
6. Podnebesnaya E. I. Pedagogical Aspects of Adolescents' Social Health Formation: Dissertation... Candidate of Pedagogical Sciences. - Ryazan, 2010. - pp. 73-134.
7. Seytkhalilov E.A. Pedagogical Foundations of the Health-Oriented Educational Process in General Education Schools of Uzbekistan. Abstract of doctoral dissertation in pedagogical sciences. -Т., 2000. - pp. 15-27.
8. Khutorskoy A.V. Heuristic Learning: Theory, Methodology, Practice. - Moscow: International Pedagogical Academy, 1998. - pp. 150-170.